

“Qor Oyi” haqida eshitganmisiz?

Insoniyat qadimdan osmon jismlariga, xususan, Oy harakatlariga katta qiziqish bilan qarab kelgan. Oy fazalari nafaqat astronomik hodisa, balki tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar bilan ham chambarchas bog'liq. Shulardan biri — fevral oyida kuzatiladigan to'linoy bo'lib, u xalq orasida “Qor Oyi” nomi bilan tanilgan.

Yilning ikkinchi to'la Oyi, ya'ni to'linoy fazasi, 1-fevral yakshanba kuni sodir bo'ladi. Shu kuni Oy Quyoshdan qarama-qarshi tomonda bo'ladi, taxminan Quyosh (17:39) botganda Oy (16:58) chiqadi.



Astronomik nuqtayi nazardan to'la Oy fevralda quyidagi uchta yulduz turkumidan birida joylashgan bo'lishi mumkin: bulardan ikkitasi zodiak yulduz turkumlari bo'lmish Arslon va Qisqichbaqa, uchinchisi Arslonga qo'shni Sekstant yulduz turkumidir. Ko'pincha fevralning to'lin Oyi Arslon yulduz turkumida bo'ladi, biroq 2026-yilda oyning to'la diski Qisqichbaqa turkumida joylashadi.





Oy 1-fevral kuni Polluks (Egizaklar yulduz turkumi) va Regul (Arslon yulduz turkumi) yulduzlari o'rtasida turadi, bu ikki yulduz ekliptika yaqinida joylashgan. Tun davomida Oy Regul yulduziga tomon siljib boradi. O'sha tunda to'la Oy Qisqichbaqa yulduz turkumidagi Yasli (M44) yulduzlar to'dasi yonidan o'tadi. Oyning to'daga eng yaqin borishi dunyo vaqti bilan soat 13:19 minut (Toshkentda 18:19) o'tganda ro'y beradi. Yaqinlashishni kuzatish nazariy jihatdan mumkin bo'lsada, amalda Oyning yorug' nurlari Yaslini ko'rishga halaqit qiladi.

AQSH, Kanada va Grenlandiya aholisi Yaslining Oy bilan to'silishini kuzatishlari mumkin. To'silish dunyo vaqti bilan 11:21 (Toshkentda 16:21) da boshlanib 15:00 (20:00) da tugaydi.

Xo'sh, Qor Oyi nima?

Shimoliy Amerika va Yevropa xalqlari odatiga ko'ra fevral oyida kuzatiluvchi to'la Oyni Qor Oyi deb atashadi. Boshqa ba'zi nomlardan (masalan, Chuvalchang Oyi yoki Pushti Oy) farqli ravishda fevraldagi to'la Oy o'z nomidan ko'rinib turibdiki, Shimoliy Amerikada eng ko'p qor yog'adigan oy. Shuning uchun mahalliy amerika hindu qabilalari uni Qor Oyi, deb atashgan. Ba'zi qabilalar esa uni Ochlik Oyi ham deyishadi, sababi bu oyda qattiq sovuq ov qilishni qiyinlashtiradi.

Turli xalqlar fevralning to'lin Oyini har xil nomlar bilan atashgan, masalan, xitoyliklar - Gullab-yashnash oyi, Keltlar - Muz Oyi, Kanada va AQSH shimolida - Burgut Oyi, Janubiy yarimsharda Don Oyi, Arpa Oyi, Qizil Oy, It Oyi kabi.

Bu Oyni ko'pincha mulohaza yuritish, sabr-toqat va hissiyot bilan bog'lashadi, shuningdek eski narsalardan xalos bo'lishga yordam beradi, deb hisoblashadi.

O'tgan Qor Oyi 2025-yil 12-fevralda bo'lgan bo'lsa, keyingisi 2027-yilning 21-fevralida sodir bo'ladi. Shu kuni Oyning yarimsoyali tutilishini kuzatish mumkin bo'ladi.

Bu Oy ham boshqalaridan farq qilmasada, uni havo ochiq bo'lsa kuzatish tavsiya etiladi. Oydagi kraterlar, tog'lar va dengizlar havaskor astronomlar, umuman oddiy odamlarda ham qiziqish uyg'otishi tabiiy.



Oyning 2026-yil fevral oyida Shimoliy va Janubiy yarim sharlarda kunma-kun ko'rinishi.

Sherdonov Chori, Astronomiya instituti katta ilmiy xodimi